

“O‘ZBEKSTON RESPUBLIKASIDA GENDER TENGLIK VA XOTIN QIZLAR MASALALARI”**Daniyarova Zibiyra Timurovna***Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridik fakultetining 3-bosqich talabasi*

Annotaciya: *Mazkur maqolada SSSR davrida xotin-qizlar masalari qanday bo‘lganligi va hozir Mustaqil O‘zbekston davrida qanday ekanligini ko‘rib chiqamiz.*

АННОТАЦИЯ: *В этой статье мы рассмотрим, как были женские проблемы во времена СССР и как они обстоят сейчас в период Независимого Узбекистана.*

Abstract: *In this article we will look at how women's problems were during the Soviet era and how they are now during the period of Independent Uzbekistan.*

Davlatimizda inson, uning obro‘si, sha‘ni va qadr qimmatini eng oily qadriyat hisoblanadi. Konstituciyamizdaham fuqarolarning huquq va erkinliklariga, ularning ijtimoiy kelib chiqishi, tili, dini, rassasi, shaxsiy va ijtimoiy mavqe‘dan qat‘iy nazar qonun oldida tengligi, ularning huquq va erkinliklari qonun himoyasidaligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekston Respublikasi 1924-yildan 1991-yili SSSR parchalangunga qadar uning a‘zosi bo‘lgan. Bu davr oralig‘ida inson huquqlari, erkinliklariga ayniqsa xotin-qizlarning huquqlariga e‘tibor qaratilmagan, shuningdek qonun bilanham belgilab berilmagan.

Xotin-qizlarning hayoti asrlar davomida islom dini va sha‘riati ko‘rsatmalari asosida barpo etilgan edi. Sovet hokimiyati o‘rnatilganidan so‘ng Sharq ayollarini ozodlikka chiqarish, eski turmush tarziga hujum qilish, ayollarning *chavchan yani yuz pardasi va paranjisini tashlab, yangi zamon qurayotganlar qatoriga qo‘shilishi kabi muammolar kun tartibiga qo‘yila boshlagandi. Bolsheviklar boshchiligida O‘rta Osiyo respublikalarida ayniqsa O‘zbekstonda bunday muammolar tezlik bilan yechim topdi va buning natijasida ko‘pgina ayollar, eskilik tarafdorlari bo‘lgan o‘z yaqinlari tomonidan o‘ldirilgan. Xotin-qizlarni yangi turmushga tortish, ularni ozodlikka chiqarish albatta zarur edi. Ammo, buni Sovet hokimiyati vakillari tanlagan tezlik yo‘li bilan emas, balkim asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirganlarida ko‘pgina ayollar qurbon bo‘lmagan bo‘lar edilar.

O‘zbekston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirishning eng muhim bir masalasi sifatida ko‘rila boshladi. Jamiyatda erkaklar va ayollarning teng huquq va erkinliklarga ega ekanliklari to‘g‘risida qator qonunlar qabul qilina boshladi. Ya‘ni ta‘kidlash joizki davlatimizda gender tenglik masalasi ustun qo‘yila boshladi. Konstituciyamizningham 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi tasdiqlab qo‘yildi.

Davlatimiz 2000-yilda Birlashkan millatlar tashkiloti tizimidagi boshqa hamkorlar va butub xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda gender tengligi konsepciyasini inson foaliyatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qabul qildi.

Shuningdek, 2015-yili 25-sentabr kuni barcha mamlakatlarning etakchilari 2030-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan “Barqaror taraqqiyot” dasturini qabul qilib, talablarda aniq harakatlarga o‘tish maqsadida Birlashkan millatlar tashkilotining Nyu-Yorkdagi bosh

qarorgohida yig'iladi. Barqaror taraqqiyot 2030 dasturi yangi 17 ta barqaror taraqqiyot maqsadlaridan iboratdir.

Barqaror taraqqiyot maqsadlari hozirgi kunga qadar erishilgan yutuqlarni yanada kengaytirishga qaratilgan bo'lib, butun jahonda ayol va qizlarga qarshi kamsitilish, zo'rvonliklarni butunlay yo'qotishni ko'zda tutadi.

Har bir inson jinsiy va reproduktiv salomatligini yaxshilash bo'yicha xizmatkardan foydalanish imkoniyatining ta'minlanishi, qolaversa barcha ayollar yer resurslari va mulk kabi iqtisodiy ne'matlardan erkaklar bilan teng ravishda foydalanishi huquqi va imkoniyatini ta'minlash mazkur maqsadga erishishning eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Gender tengligini ta'minlash "Barqaror taraqqiyot 2030" dasturining 17 maqsadidan biridir. Belgilab olingan vazifalarni yechish uchun keng qamrovli chora tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi "majmuaviy yondashuv"ni qo'llash talab qilinadi.

Ammo ayirim hududlarda gender tengsizlik saqlanib qolmoqda. Jinsiy zo'rvonlik xavfi, davlat boshqaruv sohalarida mavjud bo'lgan kamsitishlar xotin-qizlarning rivojlanishiga hanuz to'siq bo'lib kelmoqda.

2016-yil Shavkat Mirziyoyev 2016-йили Шавкат Мирзиёев президентлиги бошланганидан бери ҳукумат мамлакатдаги гендер тенгсизлик ва гендер асосидаги зуравонлик муаммосига кенгрок этибор қаратди. Мамлакатда суз эркинлигига илгари қуйилган чекловлар туфайли, гендер асосидаги зуравонлик яқиндан бошлаб оммавий муҳокамаларга қушилди.

Мамлакатимиздаги гендер тенглигига эришиш йулидаги асосий тусиклардан бири жамиятимизда хукм сураётган зарарли муносабатлардир. Купчилик аёллар оиланинг мулки эканлигига ишонишади. Аёллар купинча кимга турмушга чиқиш ёки қайерда уқишни танлаш имкониятига эга эмаслар. Аёллар турмушга чикканидан кейн купинча узларининг яшаш жойларидаги барча уй ишларини бажаришга масулдирлар. Бундай муносабат албатта аёлларнинг уз хаёт йуналишини эркин белгилашига тускинлик қилади.

Хозирги кунда мамурият аёллар хукукларини фаол равишда тарғиб қилиш билан бирга, мамлакат ичидаги тенгсизликларга қарши курашмоқдалар.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев утган йили Конституция муносабати билан рағбатлантирувчи нутқ сузлаган эди. У хотин-қизларнинг ижтимоий муаммоларини аниқлаш ва хал этишдаги урни ива бошқарув самарадорлигини ошириш имкониятлари хақида гапирди. Шунингдек, президентимиз Узбекстонда хотин-қизларнинг жамиятдаги урнини ошириш сиёсатини фаол олиб бориши, йукори давлат лавозимларига тайинлашда ҳам гендер-номутаносибликни бартараф этиш зарурлигини тақидлади.

Дархақиқат, йукори давлат лавозимлари узок вақт давомида асосан эркаклар ваколоти булиб келган. Бирок, Узбекстон ҳукумати 2019-йили узининг биринчи аёл сенат раҳбари Танзила Нарбаевани тайинлади ва Сенатда гендер тенглиги буйича янги қумита тузди. Танзила Нарбаева 2016-2019-йилларда Узбекистон Республикаси Бош вазирининг уринбосари, Узбекистон Хотин-

кизлар кумитаси раиси лавозимида фаолият курсатган булиб, жамиятимиздаги намунали аёллардан хисобланади.

Хозирги пайтда давлатимизда гендер тенгликни та'минлаш буйича бир неча конунлархам кабул килинган. Масалан, 2019-йили аёллар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ва имкониятларни та'минлаш, аёлларни тақиб ва зуравонликдан ҳимоя қилиш мақсадида гендер тенглиги тугрисида иккита конун кабул қилинди.

Ма'лумки, 2019-йил 2-сентябрда кабул қилинган "Хотин-кизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар қафолатлари тугрисида" Ўзбекистон Республикасининг конуни хотин-кизларнинг жамиятдаги урнига қаратилган ҳуқуқий ҳимоя, ҳуқуқий қафолат сифатида мақуллашди.

Конуннинг мақсади хотин-кизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни та'минлаш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

Ватафсил; <https://lex.uz> O'RQ-562-son 02.09.2019

Илгари жабрланувчиларни ҳимоя қилиш учун гендер асосидаги зуравонлик ёки оилалардаги зуравонликнинг олдини олиш буйича конунлар йок эди. Ушбу конунлар гендерга асосланган зуравонликка қарши қурашишга қаратилган қамситиш ва зуравонлик турларининг тарифини ўз ичига олади. Аммо, улар мулжалланган таризда амалга оширилиши учун уларни яхшилаш керак.

Бу борада амалга ошириладиган ишларга яна бир мисол, ушбу йилнинг 1-март куни президентимиз раислигида видеоселектор йиғилиши булиб ўтди. Видеоселектор йиғилишида хотин-кизларни ҳар томонлама қуллаб-қувватлаш, уларнинг жамиятдаги мавқеини янада мустаҳкамлаш буйича вазифалар белгилаб олинди. Шунингдек, йиғилиш давомида кейинги 5 йил оралигида аёлларга бериладиган этибор, уларга яратиб бериладиган шарт-шароитлар борасида бир нечта рақамларни келтирилди;

-2020-йилда Аёллар дафтари тизими йўлга қўйилган булиб, 2 йил давомида 900 мингга яқин хотин-кизларга ижтимоий-иқтисодий, тиббий, ҳуқуқий ва психологик қўмақ берилган;

-2021-йилда аёллар тадбиркорлиги дастурлари доирасида 200 мингдан зиёд лойиҳаларга 2 триллион сумм кредит ва субсидиялар ажратилиб, 320 минг хотин-кизлар доимий иш уринларига эга бўлганлиги;

-2021-йилда 1 минг 153 нафар аёлга юқори технологик тиббий операциялар бепул ўтказилганлиги ҳақида тақидлади.

Янги Ўзбекистон тараққёт стратегиясида ҳам аёлларга муносиб шароит яратиш, уларнинг ташаббусларини қуллаб-қувватлаш масаласи энг муҳим йўналишлардан бири сифатида белгиланган. Ушбу муҳим вазифалар ижросини тизимли тарзда ҳар бир маҳалла кесимида амалга оширишни таъминлаш мақсадида йиғилиш пайтида президентимиз "Оила ва хотин-кизлар давлат

кумитаси”ни ташкил этиш буйича фармонни имзолади.Кумита рахбари лавозимига Туракургон туман хокими Зулайхо Махкамова тайинланди.

Хеч шубхасиз,бугунги фаровон хаётимиз хам,ёруг келажакимиз хам албатта оила ва жамиятимизнинг устуни,хаётимизнинг фаизи ва курки булган аёлларга богликдир.Халкимиз хамиша аёлларни эъзозлаб яшаган,хотин-кизларга юксак эхтиром курсатиб яшаш юртимизга хос азалий кадриятга айланган.

Буни мукаддас Куръони каримнинг энг ката сураларидан бири-“Нисо” яъни “Аёллар” деб аталиши хам тасдиқлайди.Аллох таоло ушбу сурада инсонларни аёлларга адолатли муносабатда булишига даъват этади.

Амалга оширилайотган ишларга карамастан Узбекстон хали гендер тенгсизликлар ва гендер асосидаги зуравонлик билан боглик куплаб муаммоларга дуч келайотган давлатдир.Тугри хозир биз яшаётган давр янгиланётган Узбекистоннинг ислохатларида инсон манфаатларининг устунлигига каратилган бир пайтда,халихам оилавий низоларнинг жуда катта кисми эркаклар томонидан аёл хукукларининг тан олинмаслик холатлари шунингдек, айрим холатларда жамиятда хам хотин-кизларнинг хукук ва имкониятларига етарлича ахамийот берилмайотгани хакикатдир.Шунингдек, Руспубликамизнинг телеканалларида эфирга узатилаётган сериал ва кино филмлардахам етарлича муаммолар мавжуд. Филмларнинг номланишинг узи инсонни вахимага солади. Масалан,”18 ёшли жазман”, “Тугмас”,”Бепушт”,”Хиёнаткор келин” ва бошқалар.Эслаб қолиш кобилиятининг купгина кисми куриш билан боглик.Бу каби филмларни курган хар бир эркак томошабинлар, усмир ёшдаги йигитлар онгида аёл кишига нисбатан нафрат,ишончсизлик,хурматсизлик,аёл кишини хиёнаткар деб хисоблайдиган фикрларнинг вужудга келиши табиий.

Хулоса килишимиз керак-ки давлатимизда гендер тенглик, аёлларнинг хак-хукуклари хакида ечим кабул килишимизда аввалом бор эфирга узатилаётган филмлар ва кино лавхаларга этибор каратишимиз керак.

Шунингдек, ушбу муаммоларни хал килишда купрок конунлар ва амалдаги конунларни такомиллаштириш зарурияти мухим ахамиятга эга.

Хали килиниши керак булган ишлар куламини инкор этиб булмайти,лекин янги конунчилик ва гендерга оид ташаббусларнинг мавжудлиги Узбекистон ва унинг халки учун янада порлок келажакни курсатади.